



INGLIZ VA O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING SOTSIOLINGVISTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Xamrayeva Nilufar Xamidullayevna

Islom Karimov nomidagi

Toshkent davlat texnika universiteti

"Chet tillar" kafedrası dotsenti

E-mail: Nilufar6446@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19644506>

Kalit so'zlar: maqol, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, tarjima, ekvivalentlik, madaniy moslashtirish, individualizm, jamoaviylik, axloqiy qadriyatlar, paremiologiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalq maqollarining sotsiolingvistik hamda lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki xalq maqollarida aks etgan axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlar, ularning ifoda uslubi hamda madaniy kontekst bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, maqollarning individualistik va jamoaviy madaniyat muhitida shakllanishi, ularning semantik va pragmatik jihatlari misollar asosida tahlil etiladi. Tarjima jarayonida maqollarni so'zma-so'z emas, balki mazmuniy moslashtirish zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida maqollar orqali ifodalangan milliy mentalitet, qadriyatlar tizimi va sotsiolingvistik tafovutlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Ingliz va o'zbek xalq maqollarida tarbiyaviy va axloqiy qadriyatlar ko'plab o'xshashliklarga ega, biroq ularning ifoda usuli va sotsiolingvistik konteksti turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, inglizcha maqol: *A good dog deserves a good bone* (Oxford, 2015, s. 134) o'zbek tilida bevosita shunday tarjima qilinadi: *"Yaxshi it yaxshi suyakka loyiq"*. Shu bilan birga, o'zbek xalq maqolida bu mazmun biroz sayqallangan holda: *Yaxshiga ipak ilashur, yomonga tikan ilashur* (Madumarova, 2000, s. 50) tarzida ifodalanadi. Mazmun jihatidan ikkala maqol ham yaxshilik qilgan shaxs yoki ob'ekt yaxshi narsaga loyiq degan xulosani beradi. Biroq inglizcha maqolni bevosita tarjima qilish ba'zida qo'polroq, bevosita va soddalashtirilgan ohangda eshutilishi mumkin. Shu sababli, o'zbekcha muqobil variant, tarixiy va madaniy kontekstga mos ravishda, avlodlarga yaxshilikdan saboq berish uchun yanada qulayroq va tabiiyroq hisoblanadi.

Revenge never repairs an injury (Oxford, 2015, s. 140) tarjimasi *"Qasos jarohatni tuzatmaydi"*. Bu maqolning mazmuniy farqi shundaki, inglizcha versiyada qasos olmaslik, yomonlikka yomonlik bilan javob bermaslik tavsiya qilinadi. O'zbekcha talqinda esa bu fikr yanada boyitilib: *Yomonlik qilganga yaxshilik qil* (Eshbekov, 2008, s. 60), ya'ni yomonlikka faqat passiv qarshilik qilish emas, balki yaxshilik bilan javob qaytarish nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek maqollari sotsiolingvistik jihatdan jamoaviy va tarbiyaviy qadriyatlarni yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Every cloud has a silver lining (Oxford, 2015, s. 150).

Bu maqol hayotdagi har qanday salbiy vaziyatda ham ijobiy tomon mavjudligini bildiradi. O'zbekcha talqini esa: *Har yaxshida bir "ammo" bor, har yomonda bir "lekin" olingan* (Z.Madumarova, 2000, s. 53) tarzida ifodalanadi. Shu yerda sotsiolingvistik jihatdan o'zbekcha maqol holatni yanada tushunarli va vizual ravishda ifodalaydi, shuningdek, xalqning an'anaviy ifoda uslubini saqlaydi.

Ushbu misollar orqali sotsiolingvistik tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek xalq maqollari o'xshash umumiy g'oyalarga ega bo'lsa-da, ularning shakllanishida har bir xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy konteksti muhim rol o'ynaydi.



Avvalo, ingliz maqollarida ko'proq individual tajriba va shaxsiy qarorlar asosida axloqiy xulosa chiqarishga urg'u beriladi. Bunday maqollar ko'pincha insonning o'z hayoti uchun mas'uliyati, shaxsiy erkinligi va tanloviga qaratilgan bo'lib, G'arb jamiyatlaridagi individualizm qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, *A bad beginning makes a bad ending* yoki *Every cloud has a silver lining* kabi maqollar insonning shaxsiy tajribasiga asoslanib, uni hayotiy saboq chiqarishga undaydi. Bu esa ingliz tilidagi maqollarning sotsiologik jihatdan individualistik madaniyat muhitida shakllanganini ko'rsatadi.

O'zbek maqollarida esa butunlay boshqa yo'nalish kuzatiladi. Ular asosan jamoaviy qadriyatlar, oilaviy mas'uliyat va an'anaviy urf-odatlar bilan bog'liq bo'lib, shaxsiy qarorlardan ko'ra jamoa va jamiyat manfaatini ustun qo'yadi. Masalan, *Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, yomon gap bilan musulmon dinidan* yoki *Yomonlik qilganga yaxshilik qil* kabi maqollar nafaqat axloqiy saboq beradi, balki jamiyatda tinchlikni, birdamlikni va ijobiy ijtimoiy muhitni ta'minlashga qaratilgan. Bu holat Sharq jamiyatlarida jamoaviylik va ijtimoiy birdamlikning ustuvor qadriyat sifatida shakllanganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, ingliz va o'zbek maqollari bir-birining mazmunini to'liq so'zma-so'z ko'chira olmasligi ularning sotsiologik farqlari bilan bog'liqdir. Chunki har bir xalqning tili uning dunyoqarashi, tafakkur tarzi va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'langan. Shu sababli, tarjima jarayonida maqollarni so'zma-so'z emas, balki mazmuniy moslashtirish orqali yetkazish muhim hisoblanadi. Masalan, inglizcha *A good dog deserves a good bone* maqoli o'zbek tiliga "Yaxshi it yaxshi suyakka loyiq" tarzida so'zma-so'z tarjima qilinsa, u biroz qo'pol eshitiladi. Shu bois o'zbek xalqida asrlar davomida shakllangan va sayqallangan muqobil maqol — *Yaxshiga ipak ilashur, yomonga tikan ilashur* — mazmuniy jihatdan mos keladi va o'zbek madaniyatining ruhiga yaqinroq ifodalanadi.

Tarjima jarayonidagi bunday sayqallash va madaniy moslashtirish maqolning tarbiyaviy, axloqiy va ijtimoiy qiymatini saqlab qolishga xizmat qiladi. Zero, har bir xalq o'z maqollari orqali hayotiy tajribani, axloqiy qoidalarni va ma'naviy qadriyatlarni avlodlardan avlodga yetkazadi. Ingliz va o'zbek maqollari ham universal jihatdan yaxshilik va yomonlik, halollik va insofsizlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi umuminsonga xos g'oyalarni ifodalasa-da, ularning taqdim etilish shakli, ifoda uslubi va qo'llanilish konteksti farq qiladi.

Ingliz maqollari individualistik jamiyatning shaxsiy tajriba va qarorlarni qadrlashini ifodalasa, o'zbek maqollari jamoaviylik, an'anaviy qadriyatlar va oilaviy mas'uliyatni targ'ib etadi. Shu bois, sotsiologik nuqtai nazardan ularni qiyosiy tahlil qilish nafaqat ikki xalqning til boyligini, balki madaniy tafakkurini, qadriyatlar tizimini va tarbiyaviy an'alarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Ingliz va o'zbek maqollarining sotsiologik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular asosan axloqiy va tarbiyaviy funksiyani bajaradi, jamiyatning ijtimoiy me'yorlarini qisqa va lo'nda shaklda ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi *A good dog deserves a good bone* maqoli so'zma-so'z "Yaxshi it yaxshi suyakka loyiq" degan ma'noni anglatadi. O'zbek xalq maqollarida esa unga ma'nodosh tarzda "Yaxshiga ipak ilashur, yomonga tikan ilashur" varianti ishlatiladi¹. Bunda asosiy urg'u insonning yaxshi yoki yomon xulqi jamiyat tomonidan munosib tarzda baholanishiga qaratilgan.

Xuddi shuningdek, ingliz tilidagi *Revenge never repairs an injury* ("Qasos jarohatni tuzatmaydi") maqoli yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarish oqibat bermasligini anglatadi. O'zbek tilidagi "Yomonlik qilganga yaxshilik qil" maqoli esa nafaqat qasos olmaslikni, balki yomonlikni



yaxshilik bilan yengish g'oyasini ilgari suradi². Bu farq ikki xalqning madaniy va diniy qadriyatlari bilan bog'liq bo'lib, o'zbek kontekstida yaxshilik eng oliy fazilat sifatida ko'riladi. Bundan tashqari, inglizcha *Hope for the best and prepare for the worst* maqoli so'zma-so'z "Yaxshilikka umid bog'la, yomonlikka tayyor tur" tarzida tarjima qilinadi. O'zbek tilida ham bu mazmun bevosita uchraydi. Ushbu maqol har ikki xalq tafakkurida umidni so'ndirmaslik, biroq har xil vaziyatlarga tayyor turish lozimligi haqida ogohlantiradi¹.

Quyida yana ingliz va o'zbek tillarida ishlatiladigan ayrim maqollarni ko'rib chiqamiz. Ular bir qarashda turlicha ifodalangan bo'lsa-da, mazmun va semantik jihatdan o'xshashliklari ham, farqlari ham mavjud.

Masalan, ingliz tilidagi *There is a snake in the grass* ("O't ichida ilon") maqoli o'zbek tilidagi "Yomon ilon tegirmon boshida aylanar" maqoliga semantik jihatdan yaqin hisoblanadi. Bu yerda "ilon" obrazi insonga ko'chirilgan bo'lib, yashirin yomonlik, hiyla yoki fitnani anglatadi. O'zbek maqolida esa bu obraz doimo foyda keladigan joyda aylanadigan, manfaatparast odamni ifodalaydi¹.

Yana bir inglizcha maqol: *No mischief but a woman or a priest is at the bottom of it* ("Yomonlik yo'qki, uning asosida ayol yoki mulla bo'lmasin") fransuzlarning mashhur *Chercher la femme* ("Ayolni qidir") iborasiga hamohangdir. O'zbek maqollarida esa bu mazmun "Sharmandaga shahar keng" tarzida ifodalanadi. Inglizcha va fransuzcha variantlarda ayol obrazi salbiy konnotatsiyada qo'llanilsa, o'zbek tilida umumiy "yomonlik" obrazining oqibatiga urg'u qaratilgan².

To haul over the coals ("Qilmish-qidirmish") maqoli jinoyat qilgan odam jazodan qochib qutulmasligini bildiradi. O'zbek nutqida bu g'oya "yomonlikning jazosi bor" degan xalqona qarash bilan bog'liq bo'lib, asosan yoshi katta kishilar yoki jinoyat ishlari bilan shug'ullanuvchilarning nutqida ishlatiladi.

Folly grows without watering ("Ahmoqlik suvsiz ham o'sadi")³ esa o'zbek tilida "Nodoning ishi yengil, yaxshining ishi og'ir" maqoliga yaqin. Inglizcha variantda "ahmoqlik" obraz sifatida mustaqil ishlatilsa, o'zbekcha maqolda "nodon" va "yaxshi" qarama-qarshiligi orqali ijtimoiy qiyos kuchaytiriladi.

Never cast dirt into that fountain of which thou hast sometime drunk ("Quduqqa tupurma, qaytib icharing bor") maqoli ham universal donolikni ifodalaydi. O'zbek variantida bu juda yaqqol va obrazli ko'rinishda berilgan: inson minnatdorlikni unutmasligi, unga foyda bergan narsaga xiyonat qilmasligi kerak.

Nihoyat, *Forgive and forget* ("Yomonlikni yaxshilik bilan yeng")⁴ maqoli ham o'zbek tilida keng qo'llaniladi. Bu yerda asosiy ma'no shuki, yomonlikka yomonlik bilan emas, balki yaxshilik bilan javob berish eng oliyjanob insoniy fazilatdir⁵.

¹ G'afforov, N. N. *O'zbek maqollarining semantik va struktur xususiyatlari*. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2004. – 214 b.

² G'afforov, N. N. *O'zbek maqollarining semantik va struktur xususiyatlari*. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2004. – 214 b.

³ Karomatova K.M, Karomatov H.S, PROVERBS-MAQOLLAR-ПОСЛОВИЦЫ, Tit. varag'i va matni rus, o'zbek ingliz tillarida. T.: Mehnat, 2000. -167 B

⁴ Karomatova K.M, Karomatov H.S, PROVERBS-MAQOLLAR-ПОСЛОВИЦЫ, Tit. varag'i va matni rus, o'zbek ingliz tillarida. T.: Mehnat, 2000. -214 B

⁵ G'afforov, N. N. *O'zbek maqollarining semantik va struktur xususiyatlari*. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2004. – 214 b.



Shunday qilib, ingliz va o'zbek maqollarida umumiylik shundaki, ikkalasi ham axloqiy qadriyatlarni targ'ib etadi, yomonlikning oqibatlarini eslatadi va yaxshilikni ustun qo'yadi. Farqli tomoni esa shundaki, ingliz maqollarida ko'proq individual tajriba va shaxsiy saboq aks etsa, o'zbek maqollarida ijtimoiy muhit, jamoaviy qadriyat va ma'naviy-ma'rifiy an'analar ustuvorlik qiladi.

Ingliz va o'zbek xalq maqollari insoniy fazilat va illatlarni tasvirlashda o'ziga xos ramziy obrazlardan foydalanadi. Ularni sotsiologik jihatdan qiyoslaganda, umumiylik va farqlarni ko'rish mumkin.

Madaniy jihatdan ham muhim tafovutlar mavjud. Ingliz maqollarida diniy elementlar kam uchraydi, ko'proq dunyoviy va amaliy hayotiy tajriba asosida shakllangan. O'zbek maqollarida esa diniy ramzlar (*Xoliq, din, musulmon*) faol qo'llanadi, bu esa xalqning tarixiy-madaniy taraqqiyotida diniy qadriyatlarning kuchli bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek maqollarining umumiy jihati – insoniy munosabatlar, yaxshi va yomon xulqlarni obrazlar orqali ifodalash bo'lsa, farqi shundaki, ingliz maqollari individualizmga, o'zbek maqollari esa jamoaviylik va ma'naviy qadriyatlarga ko'proq urg'u beradi. Bu esa har ikki xalqning ijtimoiy-madaniy muhitidan kelib chiqadigan sotsiologik farqlarning yaqqol ko'rinishidir.

References:

1. Oxford Dictionary of Proverbs. – 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 400 p.
2. Madumarova Z. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Fan, 2000. – 120 b.
3. Eshbekov Sh. O'zbek xalq maqollari va matallari. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 160 b.
4. Nida E. Toward a Science of Translating. – Leiden: E.J. Brill, 1964. – 331 p.
5. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
6. Vermeer H. J. Skopos and Commission in Translational Action // The Translation Studies Reader. – London: Routledge, 2000. – P. 221-232.
7. Nord C. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. – Manchester: St. Jerome Publishing, 1997. – 154 p.